

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI
INSTITUTI

“Kiritdi”

“Kelishildi”


“Tasdiqlayman”

O'zDK huzuridagi
B.Zokirov nomidagi MESI
rektori

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirining
birinchi o'rinbosari

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirining
birinchi o'rinbosari


A.M.Mansurov


S.B.Rajabov


A.B.Tadjixanov



2026-yil

« ___ » _____ 2026-yil

« ___ » _____ 2026-yil

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI

60211400 - Ta'lim yo'nalishi: Vokal san'ati

60211400 - Vokal san'ati: estrada xonandaligi
ta'lim yo'nalishi uchun

Toshkent – 2026

Kirish

Mazkur dastur va baholash mezonlari 60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha "Ixtisoslik"dan 1-ijodiy imtihon dasturi va 2-ijodiy fan "Musika adabiyoti va nazariyasi"dan abituriyentlarning amaliy – nazariy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asar ijrosi va boshqa topshiriqlar borasida amaliy ishlarni bajaradilar, Musika adabiyoti bo'yicha kollokvium suhbatidan o'tadilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezonlar asosida baholanadi.

"Ixtisoslik"dan ijodiy imtihon maqsadi va vazifalari

60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me'yoriy dasturni o'zlashtirish ustida ish olib boriladi.

Estrada yakka xonandaligini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini o'zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e'tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. Estrada yakka xonandaligi yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo'lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60211400 – Vokal san'ati: estrada xonandaligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 20 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida "Ixtisoslik" fanidan ijro dasturi (o'zbek va jahon musiqasidan namuna sifatida taniqli qo'shiqlar)ni taqdim etishi talab etiladi.

"Musika adabiyoti va nazariyasi" bo'yicha Solfedjio qismidan notaga qarab, dirijyorlik qilib kuylab berishi (10 daqiqagacha) hamda 10 daqiqagacha vaqt mobaynida Musika adabiyotidan kollokvium suhbatidan o'tishi lozim.

1-fan

"Ixtisoslik"dan ijro dasturi

60211400 – Vokal san'ati: estrada xonandaligi ta'lim yo'nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro'yxat asosida tanlagan yo'nalishi

bo'yicha yakka tarzda, tayyorlangan dasturni fortepiano yoki musiqiy audio jo'rligida yoddan kuylash.

Abituriyent asarlar nota matnini xatosiz, asarning sur'atini ko'rsatilgan tezlikda, kuy shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, intonatsiya sofligiga amal qilib, barcha artikulyatsiya talablarini bajarib, shuningdek, asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq ochib bergan holatda kuylab berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalarining qo'llanishi, tovush kuchi va uni boshqarish, hamda uning sifati asosiy ahamiyatga ega.

Ijro dasturi 6 ta yo'nalishdagi asarlar majmuasidan iborat bo'ladi:

- 1 ta vokaliz (F.Abt, G.Zeydler, D.Amanullayeva va boshqalar) fortepiano jo'rligida;

- 1 ta o'zbek retro qo'shiqlaridan musiqa jo'rligisiz ijro etish (a capella) ;

- 1 ta o'zbek kompozitorlari yaratgan estrada qo'shilar (B.Zokirov, Ikr.Akbarov, M.Burxonov, M.Leviyev, D.Zokirov, Sh.Ramazonov, X.Izamov, E.Salixov N.Norxo'jayev, A.Mansurov, D.Amanullayeva, A.Ikramov, A.Rasulov, D.Ilyosov kabilar) fortepiano yoki musiqiy audio (minus) jo'rligida;

- 1 ta taniqli o'zbek ijrochilarning estrada qo'shiqlari (F.Zokirov, O.Nazarbekov, Yu.Usmonova, S.Nazarxon, va boshqalar) fortepiano yoki musiqiy audio (minus) jo'rligida;

- 1 ta rus kompozitori yoki estrada yulduzlari dasturidagi qo'shiqni fortepiano yoki musiqiy audio (minus) jo'rligida;

- 1 ta chet el (g'arb, yevropa yoki sharq) kompozitorlari, bastakorlari hamda estrada yulduzlari dasturidagi qo'shiqni fortepiano yoki musiqiy audio (minus) jo'rligida.

Izoh: Ijodiy imtihon komissiyasi ijro qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar ijroni to'xtatishga haqli.

Ijodiy imtihonda abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Ijro dasturi –

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar matnining to'g'riligi	10,0 ballgacha
2.	Asar mazmunini ochib berilishi	10,0 ballgacha
3.	Ovozni boshqarish mahorati	10,0 ballgacha
4.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	10,0 ballgacha
5.	Dinamikaga e'tibor berishi	10,0 ballgacha
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi	10,0 ballgacha
7.	Intonatsiya sofligi	10,0 ballgacha
8.	Sur'atning aniqligi	10,0 ballgacha
9.	Sof ijro uslubi	10,0 ballgacha
10.	Sahna madaniyati	3,0 ballgacha

“Ixtisoslik”dan ijro dasturi bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **93,0** ball

2-fan

“Musiqqa adabiyoti va nazariyasi”

a) “Solfedjio”

Mazkur amaliy fanni o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Solfedjio”dan to‘laqonli bilimga ega bo‘lgan holda, notaga qarab kuylash ko‘nikmalarini namoyish qilishi lozim.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Notanish mashq va estrada-jaz uslubidagi bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash;
2. Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Akademik va estrada-jaz uslubidagi bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash:	
a)	Tonallikni to‘g‘ri aniqlash	8 ballgacha;
b)	Sof kuylash	8 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish	8 ballgacha.
2.	Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.	9 ballgacha.
Jami		33,0

“Solfedjio” uchun qo‘yiladigan maksimal ball – **33, 0** ball.

b) “Musiqā adabiyoti”

Kollokvium tarzidagi suhbatdan abituriyentning jahon, rus, o‘zbek musiqasi, hamda estrada-jaz musiqasi tarixiga oid savollarga javob berishi, topshirgan yo‘nalishi tarixi haqida bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi:

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1.	Jahon musiqasi tarixidan savollarga javob	7,0 ballgacha
2.	Rus musiqasi tarixidan savollarga javob	7,0 ballgacha
3.	O‘zbek musiqasi tarixidan savollarga javob	7,0 ballgacha
4.	Estrada-jaz musiqasi tarixidan savollarga javob	9,0 ballgacha
Jami		30,0

“Musiqā adabiyoti”dan to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball – **30,0 ball**

“Musiqā adabiyoti va nazariyasi” uchun qo‘yiladigan maksimal ball – **63,0 ball**.

Mazkur ta‘lim yo‘nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo‘yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Ijodiy imtihonni o‘tkazish tartibi

60211400 – Vokal san‘ati: estrada xonandaligi ta‘lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san‘ati instituti binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o‘tkaziladi.

Apellyatsiya tartibi

Oliy ta‘lim tashkiloti rektori (direktori)ning buyrug‘i bilan 3 nafardan kam bo‘lmagan tarkibda sohaning yetuk mutaxassislari va oliy ta‘lim tashkilotining tajribali xodimlari, professor-o‘qituvchilaridan iborat apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a‘zolarining kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Imtihonni qabul qilgan kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi a‘zosi apellyatsiya jarayonida qatnashib, o‘z

fikrini bildirish huquqiga ega. Apellyatsiya shikoyatlari imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan uch kun muddat ichida ko'rib chiqiladi. Abituriyent apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya arizasining ko'rib chiqilish vaqti va joyi haqida abituriyentga kamida bir kun oldin xabar beriladi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.09.2025 yildagi 578-son qarori

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI BOTIR
ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI

60211400 - Ta'lim yo'nalishi: Vokal san'ati:

60211400 - Vokal san'ati: estrada xonandaligi
ta'lim yo'nalishi uchun

T A Q R I Z.

Taqriz uchun taqdim etilgan mazkur kirish ijodiy (kasbiy) imtihonlari dasturi va baholash me'zoni, abituriyentning umumiy tayyorgarlik darajalari, qabul qilingan me'yoriy talablarni o'zlashtirish ko'lamidagi qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql - zakovati hisobga olingan holda baholash uchun tuzilganligi o'rganildi

Talabgor abituriyentlar 60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) yo'nalishi bo'yicha ovoz imkoniyati va o'zlashtirish darajasidan kelib chiqadigan bilimlarga ega bo'lganliklarini, har biri o'zining ijro imkoniyatlari, sahna madaniyati, ijro darsturidagi asar mohiyati va stilistikasi, badiiy saviyasi kabilarni namoyish etib, kasbiy mutaxassislik yo'nalishida erishgan yutuqlarini ko'rsata bilishlari lozim.

60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) kasbi yuzasidan abituriyent dunyoqarashi, uning insoniy madaniyat tarixi bilan tanishligi, vokal san'ati tarixi va ijro maktablari, bu borada fikr yuritishi, jahon va o'zbek musiqa san'ati tushunchasi, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqqan holda abituriyentlar bilimi baholanadi. Har bir fanning baholash ballari mavjud bo'lib, barcha jarayonlardan to'liq o'tgandan keyin yakuniy baho qo'yilishi belgilangan.

Tuzilgan Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi hamda baholash mezonlari 60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) qabul komissiyasi talablariga to'liq mos kelib, qabul jarayonlarida foydalanish uchun tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari
uyushmasi raisi, professor



R.Abdullayev

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI BOTIR
ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI

60211400 - Ta'lim yo'nalishi: Vokal san'ati:

60211400 - Vokal san'ati: estrada xonandaligi
ta'lim yo'nalishi uchun

T A Q R I Z.

Taqriz uchun taqdim etilgan mazkur kirish ijodiy (kasbiy) imtihonlari dasturi va baholash me'zoni, abituriyentning umumiy tayyorgarlik darajalari, qabul qilingan me'yoriy talablarni o'zlashtirish ko'lamidagi qobilyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql - zakovati hisobga olingan holda baholash uchun tuzilganligi o'rganildi

Talabgor abituriyentlar 60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) bo'yicha ovoz imkoniyati va o'zlashtirish darajasidan kelib chiqadigan bilimlarga ega bo'lganliklarini, o'zlarini ijro imkoniyatlari, sahna madaniyati, ijro darsturidagi asar mohiyati va stilistikasi, badiiy saviyasi kabilarni bilgan holda, kasbiy mutaxassislik yo'nalishida erishgan yutuqlarini ko'rsata bilishlikdan iboratdir.

60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) yuzasidan abituriyent dunyoqarashi, uning insoniy madaniyat tarixi bilan tanishligi, vokal san'ati tarixi va ijro maktablari, bu borada fikr yuritishi, jahon va o'zbek musiqa san'ati tushunchasi, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan talablardan kelib chiqqan holda abituriyentlar baholanadilar. Dasturning bo'limlari bo'yicha baholash ballari mavjud bo'lib, barcha ijodiy sinov jarayonlari to'liq o'tgandan keyin yakuniy baho e'lon qilinadi.

Ushbu tuzilgan Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi hamda baholash mezonlarini 60211400 – Vokal san'ati (estrada xonandaligi) yo'nalishi talablariga to'liq mos deb hisoblab, qabul jarayonlarida foydalanish uchun tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

MESI "Estrada xonandaligi" kafedrasi
professori

Yu.Turayev

